



**VINO VA CHOY: ITALIYA VA TURKIY XALQLARNING MADANIYATI VA
MENTALITETI IFODASI**

Keldiyorova Sevinch Jasur qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-kurs talabasi

Sevinchkeldiyorova2005@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Italiya va turkiy xalqlarning og'zaki ijodida vino va choy obrazlarining lingvokulturologik tahlili berilgan. Tadqiqot davomida ushbu ichimliklarning nafaqat kundalik hayotdagi o'rni, balki xalq mentaliteti, madaniyati va qadriyat tizimiga ta'siri ochib beriladi. Vino va choy obrazlari orqali har ikkala xalqning dunyoqarashi, mehmondo'stlik an'analari, ijtimoiy muloqot uslubi va hayot falsafasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, Italiya, turkiy xalqlar, og'zaki ijod, frazeologiya, vino, choy, mentalitet, madaniy kod, qiyosiy tahlil.

**WINE AND TEA: REFLECTION OF THE CULTURE AND MENTALITY OF
ITALIAN AND TURKIC PEOPLES**

Abstact

This article presents a linguocultural analysis of the images of wine and tea in the folklore of Italian and Turkic peoples. The study examines not only the role of these beverages in everyday life, but also their influence on the national mentality, culture, and value systems of both nations. Through the images of wine and tea, the worldview, hospitality traditions, social communication styles, and life philosophy of both peoples are revealed.

Key words: linguoculture, Italy, Turkic peoples, folklore, phraseology, wine, tea, mentality, cultural code, comparative analysis.





KIRISH

Italiya uzoq tarixga ega vino yurti bo'lib, uning madaniy hayotida vino alohida o'rin tutadi. Bu ichimlik Italiyaning gastronomik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Vino italyan xalqining nafaqat kundalik hayotida, balki ularning xalq og'zaki ijodida ham o'z aksini topgan. Xalq ertaklari, qo'shiqlar va maqollarda vino hayotiy quvonch, do'stlik, mehmondo'stlik va baxt timsoli sifatida talqin etiladi.¹

Vino obrazi faqatgina ichimlik doirasida qolib ketmay, italyan xalqining hayotga bo'lgan qarashi, qadriyatlari va estetik dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvokulturologik belgiga aylangan.² Vino orqali bayram, farovonlik, samimiyat va insoniy munosabatlarga beriladigan yuksak e'tibor ifoda etiladi.

Xuddi shunday, turkiy xalqlarning og'zaki ijodida choy va sharbat kabi ichimliklar alohida o'rin tutadi. Choy turkiy xalqlarning nafaqat iste'mol madaniyatida, balki xalqning turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Choy samimiyat, mehmondo'stlik va halollik timsoli sifatida xalq donoligida mustahkam o'rin egallagan.³ Xalq maqollari, qo'shiqlari va ertaklarida choy obrazi orqali mehmonni ardoqlash, do'stlik rishtalarini mustahkamlash kabi qadriyatlar ifoda etiladi.

Italiya va turkiy xalqlarning og'zaki ijodida ichimliklar bilan bog'liq leksik birliklar va frazeologik vositalar xalq hayoti va madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu so'z boyligining lingvokulturologik jihatlarini o'rganish bugungi kunda alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.⁴

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globalizatsiya jarayonida har bir xalqning madaniy kodlarini saqlab qolish, ularni lingvistik vositalar orqali o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari uchun ham muhimdir. Italiya va turkiy xalqlarning ichimliklar bilan bog'liq og'zaki ijod namunalari qiyosiy tahlili

¹ Calvino, I. (1956). *Fiabe Italiane*. Giulio Einaudi Editore

² Garibaldi, R. (2017). In viaggio per cibo e vino. *Esperienze creative a confronto*, 2.

³ Abdurahmonov, A. (2006). Turkiy xalqlar og'zaki ijodi: Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr. Samarqand: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti.

⁴ Ничипорчик, Е. В. (2012). Здоровье как ценность в паремиологической картине мира (на материале русских и итальянских пословиц и поговорок). *Проблемы истории, филологии, культуры*, (3 (37)), 218-231.





orqali har ikkala xalqning mentaliteti, qadriyat tizimi va dunyoqarashi yanada teran ochib beriladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi usullar va yondashuvlar qo'llanildi:

➤ **Leksik-semantik tahlil**

Vino va choy bilan bog'liq atamalar lug'aviy va semantik jihatdan o'rganilib, ularning asosiy va qo'shimcha ma'nolari, shuningdek, kontekstga qarab ma'no o'zgarishlari tahlil qilindi.

➤ **Lingvokulturologik yondashuv**

Leksik birliklarning milliy mentalitet va xalq ongidagi ramziy yuklamasi lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Bu usul orqali ichimliklar obrazi orqali xalqning hayot falsafasi va qadriyat tizimi ochib berildi.

➤ **Frazeologik tahlil**

Xalq maqollari, qo'shiqlari va ertaklarida uchraydigan frazeologizmlar va doimiy iboralar funksional-semantik nuqtai nazardan o'rganildi.

➤ **Qiyosiy tahlil**

Italiya va turkiy xalqlarning og'zaki ijodi namunalari qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiylik va farqli jihatlari aniqlandi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida Italiya va turkiy xalqlarning og'zaki ijodida uchraydigan ichimliklar bilan bog'liq leksik birliklar, frazeologik vositalar va metaforalar lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikkala xalq uchun ham ichimliklar faqatgina iste'mol mahsuloti emas, balki xalqning dunyoqarashi, hayotga munosabati va milliy mentalitetining o'ziga xos ifodasi sifatida alohida o'rin tutadi.

Italiya xalq og'zaki ijodida vino obrazi alohida estetik va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, u hayotiy zavq, baxt, bayram va do'stlik belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Vino





bilan bog‘liq maqollar, ertaklar va qo‘shiqlarda ushbu ichimlik orqali xalqning hayot falsafasi, quvonch va mehmondo‘stlikka bo‘lgan munosabati ifodalangan.⁵ Masalan, *“Buon vino fa buon sangue”* (Yaxshi vino yaxshi qon qiladi) kabi maqollar orqali vino shunchaki ichimlik emas, balki sog‘lom turmush va hayotiy farovonlik belgisi sifatida talqin qilingan.⁶

Frazeologik tizim tahlili shuni ko‘rsatdiki, Italiya og‘zaki ijodida vino ko‘pincha hayotiy tajriba va vaqt o‘tishi bilan ortib boradigan boylik belgisi sifatida ham talqin etiladi.⁷ Bu holat *“Essere come un vino invecchiato bene”* (Vino kabi vaqt o‘tishi bilan yaxshilanish) kabi iboralarda yaqqol aks etadi.

Turkiy xalqlarning og‘zaki ijodida esa choy obrazi yetakchi o‘rin tutadi. Choy nafaqat ichimlik, balki samimiylilik va halollik timsoli sifatida aks etgan. Choy bilan bog‘liq maqollar va frazeologizmlar turkiy xalqlarning mehmonni izzatlash, do‘stona munosabatlarni qadrlash, ochiqlik va soddalikni e‘zozlash kabi milliy fazilatlarini ifodalaydi.⁸

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, har ikkala xalq og‘zaki ijodida ichimliklar bilan bog‘liq obrazlar milliy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, ularning tilda aks etishi xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayot tarzini yoritib beradi.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala xalqda ham ichimliklar bilan bog‘liq leksik birliklar va frazeologizmlar nafaqat turmush tarzining ajralmas qismi, balki milliy o‘ziga xoslikni saqlab qoluvchi lingvokulturologik kod sifatida muhim ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala xalq — Italiya va turkiy xalqlar — ichimliklarga nafaqat moddiy iste‘mol mahsuloti sifatida qaragan, balki ularni xalq hayoti, tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi

⁵ Garibaldi, R. (2017). In viaggio per cibo e vino. *Esperienze creative a confronto*, 2.

⁶ Ничипорчик, Е. В. (2012). Здоровье как ценность в паремиологической картине мира (на материале русских и итальянских пословиц и поговорок). *Проблемы истории, филологии, культуры*, (3 (37)), 218-231.

⁷ Keldiyorova, S. J. (2025). ГАСТРОНОМИЧЕСКИЕ МЕТАФОРЫ И ИДИОМЫ В ИТАЛЬЯНСКОМ ЯЗЫКЕ. *American Journal of Advanced Scientific Research*, 2(10), 246-251.

⁸ Abdurahmonov, A. (2006). Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi: Eng qadimdan islomgacha bo‘lgan davr. Samarqand: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti.





madaniy kod darajasiga ko'targan. Bu jarayon uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan bo'lib, lingvokulturologik merosning uzviy qismi sifatida xalq og'zaki ijodi orqali avloddan-avlodga yetib kelgan.

Italiya xalq og'zaki ijodida vino hayotiy zavq, marosimiy bayramlar, do'stlik va ochiq muloqot ramzi sifatida gavdalandirilgan. Ayniqsa, vino va sog'liq o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ifodalovchi maqollar xalq tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi yorqin vositalardan biridir. Bu kabi obrazlar italyan xalqining estetik dunyoqarashi va hayotga zavq bilan yondashuvini ko'rsatadi.⁹

Turkiy xalqlarda esa choy va u bilan bog'liq lingvokulturologik birliklar xalq hayoti va madaniy tafakkurining ajralmas qismi hisoblanadi. Choy nafaqat uy bekasi mehmondo'stligini namoyon qiluvchi ichimlik, balki do'stlik rishtalarini mustahkamlovchi ijtimoiy vosita sifatida ham e'tirof etiladi. Choy bilan bog'liq ertaklar orqali halollik va samimiyat kabi qadriyatlar kodlangan.

Turkiy xalqlarda choy obrazlari ko'proq ijtimoiy muloqot va do'stona munosabat bilan bog'liqdir. Masalan, "*Choyning so'ngini do'stingga ber*".¹⁰ Bu turkiy xalqlarning mehmondo'stlikka asoslangan mentalitetini aks ettiradi.

Zamonaviy jarayonda Italiyada vino obrazlari nafaqat folklorda, balki gastronomik turizm, reklama va ommaviy madaniyat vositasiga aylangan. Bu jarayon milliy brend yaratish va italyancha turmush tarzi — dolce vita konsepsiyasini ilgari surishda muhim rol o'ynamoqda. Shunday qilib, vino italyan identifikatoriga aylangan va milliy leksik fondning asosiy qatlami sifatida mustahkamlangan.

Turkiy xalqlarda esa choy bilan bog'liq obrazlar ko'proq an'anaviy nutqiy birliklar sifatida saqlanib qolgan. Choy obrazining globallashuvi kuchli emas, biroq u milliy madaniy kod sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XULOSA

Italiya va turkiy xalqlarning og'zaki ijodida ichimliklar bilan bog'liq leksik birliklar va frazeologik tizimlar har ikkala xalqning madaniy merosi, hayotiy falsafasi va ijtimoiy qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi lingvokulturologik fenomen sifatida shakllangan.

⁹ Ничипорчик, Е. В. (2012). Здоровье как ценность в паремиологической картине мира (на материале русских и итальянских пословиц и поговорок). *Проблемы истории, филологии, культуры*, (3 (37)), 218-231.

¹⁰ <https://myfarzand.uz/maqollar-choy.html>





Italiya xalq og‘zaki ijodida vino hayot zavqi, bayram va madaniy boylik timsoli bo‘lib, shaxsiy kamolot va yetuklik belgisi sifatida ham talqin etiladi. Vino obrazi milliy gastronomiya, turizm va brending jarayonlari orqali zamonaviy kommunikativ makonda ham faol yashashda davom etmoqda.

Turkiy xalqlarning og‘zaki ijodida esa choy samimiyat, mehmondo‘stlik va ijtimoiy yaqinlik belgisi sifatida alohida o‘rin tutadi. Choy bilan bog‘liq frazeologizmlar va maqollar xalq donoligi hamda an‘anaviy qadriyatlarning saqlanib qolishida muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Qolaversa, milliy identifikatsiya jarayonlarini chuqurroq anglash va xalq donoligini saqlab qolishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Calvino, I. (1956). *Fiabe Italiane*. Giulio Einaudi Editore
2. Garibaldi, R. (2017). In viaggio per cibo e vino. *Esperienze creative a confronto*, 2.
3. Bastianich, J., & Lynch, D. (2012). *Vino Italiano: The Regional Wines of Italy*. Clarkson Potter.
4. Ничипорчик, Е. В. (2012). Здоровье как ценность в паремиологической картине мира (на материале русских и итальянских пословиц и поговорок). *Проблемы истории, филологии, культуры*, (3 (37)), 218-231.
5. Abdurahmonov, A. (2006). Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi: Eng qadimdan islomgacha bo‘lgan davr. Samarqand: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti.
6. Keldiyorova, S. (2024). ITALYAN TILIDA GASTRONOMIYAGA OID MAQOLLARNING ETIMOLOGIK TAVSIFI. *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 888-890.
7. Keldiyorova, S. J. (2025). **ГАСТРОНОМИЧЕСКИЕ МЕТАФОРЫ И ИДИОМЫ В ИТАЛЬЯНСКОМ ЯЗЫКЕ**. *American Journal of Advanced Scientific Research*, 2(10), 246-251.
8. <https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-choy-marosimining-sirlari/>

